


2021- yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida jami **649,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **99,0 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **3 303** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **367** taga ko'paygan.











Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,3** %ga (jami qurilishdagi ulushi **55,1** %), fuqarolik obyektlarini qurish **110,8** %ga (jami qurilishdagi ulushi **10,6** %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **111,7** %ga (jami qurilishdagi ulushi **34,3** %) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	2936	3303	112,5
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	786	888	113,0
	Qo'qon	306	325	106,2
	Quvasoy	103	117	113,6
	Marg'ilon	284	347	122,2
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	90	113	125,6
	Qo'shtepa	97	103	106,2
	Bag'dod	154	157	101,9
	Buvayda	120	135	112,5
	Beshariq	74	84	113,5
	Quva	137	139	101,5
	Uchko'prik	156	178	114,1

	Rishton	67	72	107,5
	So'x	30	48	160,0
	Toshloq	119	132	110,9
	O'zbekiston	81	86	106,2
	Farg'ona	80	100	125,0
	Dang'ara	118	129	109,3
	Furqat	65	73	112,3
	Yozyovon	69	77	111,6


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.03.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (**26,9 %**), Marg'ilon (**10,5 %**) va Qo'qon (**9,8 %**) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **16,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **63,8 %**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,4 %** punktga kamayib, **2,6 %**ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Beshariq tumanida jami qurilish ishlari hajmining **17,7 %**i yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **140,3 %**, Yozyovon tumani jami qurilish ishlari hajmining **15,6 %**i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31,7 %**, va Qo'qon shahri jami qurilish ishlari hajmining **10,7 %**i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **64,9 %** ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **78,3 %**i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **6,3 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **108,9 %**ni tashkil etgan holda **508,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **17,6** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **631,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,7 %** va **97,3 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **56,5 %** yoki **367,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **15,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,1 %** ni tashkil etdi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **247,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,4 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **104,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,5 %**ni tashkil etdi.

56,5 %

4,1 %

67,4 %

28,5 %




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	649,3	99,0	367,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	183,7	118,1	77,5
Qo'qon	50,8	79,2	28,4
Quvasoy	20,8	42,1	17,8
Marg'ilon	44,9	89,4	61,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	21,1	100,2	6,4
Qo'shtepa	61,1	191,4	10,3
Bag'dod	86,9	101,4	34,0
Buvayda	23,7	135,8	6,3
Beshariq	12,5	62,0	40,9
Quva	17,8	104,6	16,6
Uchko'prik	8,9	59,7	4,9
Rishton	10,9	141,0	4,7
So'x	10,4	111,0	1,2
Toshloq	21,2	129,3	7,5
O'zbekiston	12,0	110,8	13,5
Farg'ona	4,8	36,2	4,0
Dang'ara	35,7	97,6	15,7
Furqat	12,5	55,0	10,6
Yozyovon	9,7	74,6	5,5

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari



2020- yil
Yanvar-fevral



2021- yil
Yanvar-fevral

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,8 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **6,8 %** punktga ko'payib, **75,1 %**ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga kamayib, **24,1 %**ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **9,1 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **8,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **90,0 %** (**8,1 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,9 %** (**0,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **2,7 %** punktga kamaydi va **8,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **91,1 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **2,7 %** punktga ko'paydi.

ulushi, %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.
183,7

Marg'ilon sh.
44,9

Qo'qon sh.
50,8

Bag'dod t.
52,3



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (183,7 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (44,9 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (50,8 mlrd. so'm), Bag'dod t. (52,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Ijr : O'.Umarov
Tel.: (73) 249-87-26
(73)-241-98-42